

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Dsc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

AVEZOV MIRZOBEK KOMILJONOVICH

MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Urganch - 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Avezov Mirzobek Komiljonovich

Mintaqani kompleks rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida)5

Авезов Мирзобек Комилжонович

Совершенствование механизмов комплексного развития региона (на примере Хорезмской области)31

Avezov Mirzobek Komiljonovich

Improvement of mechanisms of complex development of the region (in the case of Khorezm region)59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Dsc. 03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

AVEZOV MIRZOBEK KOMILJONOVICH

MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Urganch – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3576 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruzmetov Baxtiyar

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxitdinov Xudoyor Suyunovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Suxrob Shuxratovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "_____" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil "_____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T.J.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

U.R.Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida innovatsion mexanizmlar roli oshib bormoqda. Innovatsiyalar hozirgi zamon jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi asosiy va muhim omil hisoblanib, ayniqsa, mintaqalar kesimida innovatsion rivojlanishning institusional mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Jahonda “Raqamli iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari deyarli 15,5 foizni tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 7 foizga yetgan. Jumladan, AQSH yiliga 400 milliard AQSH dollaridan ko‘proq qiymatdagi raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. 2025-yilgacha AQSH sanoat sohasini raqamlashtirishdan qo‘shimcha 20 trln. AQSH dollar hajmida daromad olishi kutilmoqda”¹. Bu esa innovatsion yondashuvlar asosida mintaqani rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahondagi globallashtirish jarayoni sharoitida mamlakatlar mintaqalarini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy ta‘minoti, jumladan kompleks rivojlantirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, shahar va tumanlarning ixtisoslashuv va raqobat ustunliklari asosida salohiyatini baholash, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarining o‘rta va uzoq muddatli prognoz qiymatlarini ishlab chiqish kabi jihatlarni e‘tiborga olgan holda kompleks rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan oqilona va samarali foydalanish “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 60-maqсадida “Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta‘minlash darajasini oshirish” belgilangan². Shu munosabat bilan innovatsion yondashuvlar asosida hududlarni kompleks rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish, mintaqada barqaror o‘shishni taminlash modeldan foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini jadalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-son “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 20-iyundagi PQ-3794-son “Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 14-maydagi PF-5717-son “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatdan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan

¹<https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/digital-europe-realizing-the-continents-potential>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “ «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va boshqa ushbu sohadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlar mintaqashunos olimlari M.Porter, R.S.Kaplan, D.Norton, A.Tompson, X.R.Fridag, R.Harris, V.Kokren, J.Put, R.Kapell, U.Fretesi tomonidan hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish va uni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan³.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va uni davlat tomonidan tartibga solish masalalari MDH davlatlari olimlari V.I.Vidyapin, A.G.Granberg, G.V.Gutman, R.N.Yevstigneyev, L.P.Yevstigneyeva, N.V.Zubarevich, Ye.G.Kovalenko, O.V.Kuznetsova, V.N.Leksin, N.A.Mixalchenkova, T.G.Morozova, M.V.Stepanov va A.N.Shvetsovlar tomonidan keng o‘rganilgan⁴. Ularning ilmiy tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiyot fanining metodologik asoslarini boyitishga, hududiy siyosat tamoyillarini asoslab berishga, hududlar rivojlanishini tartibga solishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqishni takomillashtirishga katta hissa qo‘shgan.

Mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy-metodologik jixatlari, O‘zbekistonda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan M.A.Abdusalyamov, T.M.Axmedov, A.V.Mamatkulov, Sh.X.Nazarov, A.B.Nizamov, O.O.Olimjonov, D.A.Ortikova, B.Ruzmetov, T.D.Doschanov, A.M.Sodikov, A.T.Yusupov, F.T.Egamberdiyev, A.M.Qodirov, I.S.Abdullayev, S.S.Zokirov, X.M.Saydaxmedov

³ Портер М. Конкуренция. : Пер. с англ. - М.: Издательский дом “Вильямс”, 2003. - 608 с. : ил. - Парал. тит англ. Kaplan R.S., Norton D. P. The strategy-focused organization: How balanced scorecard companies thrive in the new business environment[Text] / R. S. Kaplan,. - Harvard Business School Press, 2001; Томпсон А. А. Стратегический менеджмент [Текст] / Пер. с англ.- М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1998.- 576 с.; Фридаг Х. Р. Сбалансированная система показателей. [Текст] / Пер. с нем. - М.: Финансы и статистика, 2007; Harris R. Models of Regional Growth: Past, Present and Future // Urban and Regional Economics Seminar Group Seminar Meeting: University of Glasgow, 10-11 January 2008; Cochrane W., Poot J. Demand-Driven Theories and Models of Regional Growth // Handbook of Regional Science. July 2013. P. 259-276; Capello R., Fratesi U. Modelling Regional Growth: An Advanced MASST Model // Spatial Economic Analysis, Vol. 7, No. 3, September 2012. P. 293-318.

⁴ Видяпин В.И., Степанов М.В. Региональная экономика: Учебник / Под ред. В.И. Видяпина и М.В. Степанова.М.: ИНФРА-М, 2009. - 666 с.; Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. Учебник для вузов - 4-е изд. М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2004. - 495 с. Гутман Г.В. и др. Управление региональной экономикой. М.: Финансы и статистика. 2002. - 175 с.; Евстигнеев Р.Н., Евстигнеева Л.П. Глобализация и российские регионы // Проблемы теории и практики управления, 2003. - №1. - С. 33. Zubarevich N.V. Стратегия пространственного развития: приоритеты и инструменты. Вопросы экономики, №1, 2019 г. - С. 135-145; Коваленко Е. и др. Региональная экономика и управление: Учебное пособие, 2-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Питер, 2008. -151 с.; Кузнецова О.В. Экономическое развитие регионов: Теоретические и практические аспекты государственного регулирования. Изд. 6-е. - М.:ЛЕНАНД, 2015. - 304 с.; Лексин В.Н., Швецов А.Н. Государство и регионы. М.: УРСС. 2002; Лексин В.Н. Методы и практика системного регулирования регионального и хозяйственного развития. М.: УРСС. 2002; Михальченкова Н.А., Сметанина Т.М. Государственное регулирование экономики: учебное пособие / КРАГСиУ, 2004. - 154 с.; Морозова Т.Г. Государственное регулирование экономики. Под ред. Т.Г. Морозовой. М.: ЮНИТИ. 2001 - 255 с.; Региональная экономика. 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Юнити-Дана, 2012. - 641 с.

va boshqalarning ilmiy ishlanmalarida keng yoritilgan⁵.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch Davlat Universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajariladi.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion yondoshuvlar asosida mintaqa iqtisodiyotini kompleks rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish xisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

innovatsion yondoshuvlar asosida hududlarni kompleks rivojlantirish konseptual yondoshuvlarini asoslash;

shahar va tumanlar salohiyatini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish;

shahar va tumanlar salohiyatini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish;

mintaqa tashqi iqtisodiy aloqalari samaradorligini tashqi savdoning bozor nazariyasi modellari asosida baholash;

shahar va tumanlarni ixtisoslashuvi, raqobat ustunliklari asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;

o'rta va uzoq muddatda Xorazm viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi mintaqalari va Xorazm viloyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini mintaqani innovatsion yondoshuvlar asosida kompleks rivojlantirish mexanizmlari va unda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada maqsadli rejalashtirish, monografik kuzatuv, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil, ekonometrik modellashtirish, ekspert baholash va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁵ Абдусалямов М. О целях и методологических основах региональной политики. Научно-исследовательский центр "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ. - Ташкент, 2015 г.; Ахмедов Т.М., Хасанджанов К.А., Хакимов Н.Х.. Региональная экономика: Учебное пособие. - М.: изд. РЭА им. Г.В.Плеханова. 2006. - 231 с.; Mamatkulov A.V. The role of free economic zones in attracting foreign direct investment through small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. "Economic development and liberalization issues of implementation the five priority areas of Uzbekistan's development strategy". -Tashkent, 2018.; Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. -Ташкент: IFMR, 2014. - 212 с.; Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ташкент, 2018 г. - 45 с.; Олимжонов О.О. Вопросы повышения конкурентоспособности сельских районов. Агрэкономика, 2017, №1. -С. 7-12; Ортикова Д.А. Иктисодиёт ракобатбардошлигини оширишнинг асосий йуналишлари. "Минтака иктисодиёти ракобатбардошлигини ошириш муаммолари ва ечимлари" мавзусидаги республика илмий -амалий конференция материаллари. - Сурхондарё, 2015.; Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. - Ташкент: Фан, 2002. - 220 с.; Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. -Ташкент: Iqtisod- moliya, 2005. - 280 с.; Садыков А.М. Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация. Монография. - Ташкент, 2019. - 536 с.; Эгамбердиев Ф.Т. Иктисодиёт назарияси, укув кулланма. - Т.: Иктисод-молия нашриёти, 2014й.; Кадыров А. М. и др. Региональная экономика. - Т.: LESSON PRESS, 2018. - 239 с.; Зокиров С.С. Инструменты государственного регулирования комплексного развития регионов Узбекистана. Материалы VI Форума экономистов. Т. II. Ташкент: IFMR, 2015. -С. 94-101; Сайдахмедов Х.М. Развитие регионов Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень «Экономика Узбекистана» за 2017 год. ЦЭИ, 2018г.

mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining xonadonbay ishlash, tadbirkorlar bilan manzilli ishlash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan;

shahar va tumanlarni tashqi iqtisodiy aloqalari samaradorligi tashqi savdoning bozor nazariyasi modullari asosida baholanib, Urganch shahri, Hazorasp, Bog'ot tumanlari o'rtachadan yuqori ($Ktc > 0.5$), Xiva shahri Smart (aqlli) turistik distinatsiya va klasterlar, Xiva tumanida, Shovot, Gurlan tumanlari o'rtacha ($Ktc < 0.5$), Yangibozor, Qo'shko'pir, Yangiariq, Tuproqqal'a tumanlari o'rtachadan past ($Ktc < 0.3$) guruhlarda ekanligi aniqlangan;

Urganch shahrida zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlari; Xiva shahrida kichik sanoat zonalarini; Bog'ot tumanida Qalajiqal'a turizm kompleksi; Urganch va Yangibozor tumanlarida innovatsion hudud; Shovot tumanida Turkmanistonning Toshhovuz viloyati bilan chegaradosh hududda chegara oldi savdo zonasi; Hazorasp tumanida erkin iqtisodiy zona samaradorligini oshirish; Gurlan, Xonqa, Yangibozor tumanlarida innovatsion yondoshuvlar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash; Tuproqqal'a tumanida IT shaharcha, yashil energiya markazini tashkil etish asoslangan;

Xorazm viloyatida ko'p omilli ekonometrik modellar tuzish asosida innovatsiyalarini joriy qilish hamda yalpi hududiy mahsulotni o'sish darajasi ko'rsatkichlarini 2024-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyatining shahar va tumanlarini rivojlantirish darajasidagi hududlararo tabaqalashuvi kesimida innovatsion yondashuvlar asosida ixtisoslashuv ustuvor yo'nalishlari aniqlangan;

mintaqada raqobatbardoshlik ustunlari asosida o'sish nuqtalarini tashkil qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini shakllantirish tashkiliy-iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan;

Xorazm viloyati shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini o'rganish smart markazi (KRDO'SM)ning elektron platformasini yaratish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarni maqsadga muvofiqligi, rasmiy statistik manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Xorazm viloyat hokimligining statistik ma'lumotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining mas'ul tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mintaqada innovatsion yondashuvlar asosida shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, strategiya va konsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari, hokimliklar, hududlardagi korxonalar va tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, mintaqada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, oliy o‘quv yurtlari o‘quv jarayonida keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqani kompleks rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining xonadonbay ishlash, tadbirkorlar bilan manzilli ishlash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli bo‘yicha taklif Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2024-yil 17-maydagi “Xorazm viloyati shahar va tumanlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-127/4-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 3-iyundagi 7-4/5108-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tuzilgan model asosida Xorazm viloyati shahar va tumanlari salohiyati baholangan, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi tahlil qilingan;

shahar va tumanlarni tashqi iqtisodiy aloqalari samaradorligi tashqi savdoning bozor nazariyasi modullari asosida baholanib, Urganch shahri, Hazorasp, Bog‘ot tumanlari o‘rtachadan yuqori ($Ktc > 0.5$), Xiva shahri Smart (aqilli) turistik distinatsiya va klasterlar, Xiva tumanida, Shovot, Gurlan tumanlari o‘rtacha ($Ktc < 0.5$), Yangibozor, Qo‘shko‘pir, Yangiariq, Tuproqqal’a tumanlari o‘rtachadan past ($Ktc < 0.3$) guruhlarda ekanligi bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimining 2023-yil 4-fevraldagi “Xorazm viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 37-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 3-iyundagi 7-4/5108-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu shahar va tumanlarda eksport salohiyatini yuksaltirish investitsiya dasturlari ishlab chiqilgan;

Urganch shahrida zamonaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari; Xiva shahrida kichik sanoat zonalarini; Bog‘ot tumanida Qalajiqal’a turizm kompleksi; Urganch va Yangibozor tumanlarida innovatsion hudud; Shovot tumanida Turkmanistonning Toshhovuz viloyati bilan chegaradosh hududda chegara oldi savdo zonasi; Hazorasp tumanida erkin iqtisodiy zona samaradorligini oshirish; Gurlan, Xonqa, Yangibozor tumanlarida innovatsion yondoshuvlar asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash; Tuproqqal’a tumanida IT shaharcha, yashil energiya markazini tashkil etish taklifi Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2024-yil 17-maydagi “Xorazm viloyati shahar va tumanlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-127/4-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 3-iyundagi 7-4/5108-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Xorazm viloyatining 2024-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida 5,2 trln. so‘mlik iqtisodiyot tarmoqlarida 428 ta investitsion loyihalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Xorazm viloyatida ko‘p omilli ekonometrik modellar tuzish asosida innovatsiyalarni joriy qilish hamda yalpi hududiy mahsulotni o‘shirish darajasi

ko'rsatkichlarini 2024-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqish bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimining 2022-yil 12-apreldagi "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 58-12-0-Q/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 3-iyundagi 7-4/5108-son ma'lumotnomasi). Natijada 2027-yilga kelib Xorazm viloyati YAHM hajmi 1,4 barobarga, investitsiyalar hajmi 2 barobarga oshishi prognoz qilinib, Xorazm viloyatida shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini oldindan aniqlash va samarali rejalashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarga asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) 4 ta maqola, shuningdek, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 8 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 125 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondoshuvlar asosida iqtisodiyotni kompleks rivojlantirishni metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotni kompleks rivojlantirishni obektiv zaruriyati, ushbu jarayonda innovatsion yondoshuvlarning o'rni, xorijiy mamlakatlarda mintaqani innovatsion va kompleks rivojlantirish tajribasi tahlil qilingan.

Innovatsion yondashuvlar ijodkorlik, samaradorlik va raqobatbardoshlikni rag'batlantirish orqali integratsiyalashgan iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Innovatsiyalar yangi sanoat tarmoqlari, mahsulot va xizmatlarni yaratishga, shuningdek, mavjud jarayonlar va texnologiyalarni modernizatsiyalashga olib keladi. Innovatsiyalarni qo'llash orqali mintaqalar tez o'zgaruvchan global iqtisodiyotda o'sish va barqaror rivojlanishga erishadilar.

Ko'pgina mamlakatlar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun innovatsion va kompleks rivojlanish strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirganlar. Shulardan, Xitoy, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Finlandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlar ilmiy tadqiqot va ishlanmalar, ta'lim, infratuzilma va tadbirkorlikka innovatsiyalar jalb qilish uchun katta sarmoya kiritganlar. Bu mamlakatlar innovatsiyalarga strategik e'tibor barqaror iqtisodiy rivojlanish va global miqyosda raqobatbardoshlik ustunliklariga qanday erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, kompleks iqtisodiy rivojlanish va innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi bugungi globallashuv jarayonida barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnikani rivojlantirishning ustuvor muammolarini hal etishga yo'naltirish uchun innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik yondashuvlarini belgilab olish, shuningdek, jahon xo'jaligi globallashib borayotgan bir sharoitda mazkur jarayonlarni samarali tashkil etishga yordam beruvchi omillarni yaratish talab etiladi⁶. Ma'lumki, bunday omillar ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash va modernizatsiya qilish, jahon bozorlariga chiqish yo'lida hal qiluvchi dastak bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, turli mamlakatlarni mintaqada innovatsion siyosatni shakllantirish tajribalari va ularni amalga oshirish tashkiliy mexanizmlarini o'rganish, bunda ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini ham e'tiborga olish, dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.


“O'zbekiston-2030” strategiyasining samarali mexanizmlarini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatimiz Prezidenti

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni. – Toshkent, 2018 yil 21 sentabr. <http://press-servis.uz>.

Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizning innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq”⁷. Innovatsion rivojlanishning jozibadorligi (jamiyat va shaxsning innovatsiyalardan foydalanish orqali rivojlanishi) eng muhim muammolarni, birinchi navbatda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi hal etish imkoniyatlari va vositalari doirasini kengaytirish hisoblanadi.

Ustuvor maqsadlardan biri mamlakatimizni Global innovatsion indeks reytingida 2030-yilga borib 50 o‘ringa olib chiqish ko‘zlangan. Mintaqalarada ilmiy salohiyatga ega kadrlarni ko‘paytirish va ulardan foydalanish, kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish va uni takomillashtirishni jadallik bilan rivojlantirish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Mana shunday dolzarb muammolarni muvaffaqiyatli ravishda hal etish innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish samaradorligini ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida, mintaqa iqtisodiyotini kompleks rivojlantirish va uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi(1-rasm).




1-rasm. Mintaqadagi innovatsion yondashuvlar turlari⁸

Shuningdek, mintaqani kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari qatoriga mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish

⁷ Sh.M.mirziyoyev.Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent.”O‘zbekiston”nashriyoti.2021y.237-bet.

⁸ Источник: разработка автора

kiradi. Tadqiqotlar natijasida mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Mintaqani kompleks rivojlantirish tamoyillari

- Maqsadga yo'naltirilganlik: Bu tamoyil mintaqani rivojlantirish uchun aniq va aniq maqsadlarni belgilash muhimligini ta'kidlaydi. Aniq yo'nalish va maqsadga ega bo'lgan holda, ushbu maqsadlarga erishish uchun resurslarni samarali taqsimlash va rivojlanishning yanada samarali natijalariga olib kelishi mumkin.

- Istiqbolli dasturlar: Bu tamoyil mintaqada sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan dastur va tashabbuslarni aniqlash va ustuvorliklarni belgilashni o'z ichiga oladi. Muvaffaqiyat va ta'sir uchun yuqori potensialni taklif qiluvchi dasturlarga e'tibor qaratish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun resurslardan samaraliroq foydalanish mumkin.

- Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish: Bu tamoyil mintaqada iqtisodiyotida innovatsiya va ijodkorlikni rag'batlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Tadbirkorlik, tadqiqot va ishlanmalar hamda texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish orqali mintaqalar global muammolarga chidamli va jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan dinamik iqtisodiyotni yaratishi mumkin.

- Davomiylilik tamoyili: Bu tamoyil vaqt o'tishi bilan mintaqaviy rivojlanish yo'lida izchil sa'y-harakatlarni davom ettirish muhimligini ta'kidlaydi. Barqaror rivojlanish uchun infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa muhim tarmoqlarga uzoq muddatli investitsiyalar va doimiy investitsiyalar davom etishi ta'minlanadi.

- Tarmoq va hududiy manfaatlarning uyg'unligi: Bu tamoyil mintaqadagi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat idoralari, xususiy sektor kompaniyalari, notijorat tashkilotlari va jamoat guruhlari o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlik qilish zarurligini ta'kidlaydi. Manfaatlarni uyg'unlashtirish va umumiy maqsadlar yo'lida birgalikda ishlash orqali mintaqalar mojarolardan qochishlari va o'zaro manfaatlar uchun resurslarni maksimal darajada oshirishlari mumkin.

- Samaradorlik tamoyillari: Bu tamoyil minimal chiqindilar bilan maksimal natijalarga erishish uchun resurslarni taqsimlash va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan. Mintaqaviy rivojlanish tashabbuslarida iqtisodiy

samaradorlik, shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni baholashga ustuvor ahamiyat berish orqali hududlar barqaror o'sish va farovonlikni ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashi mumkin.

Dissertatsiyaning "**O'zbekistonda mintaqalarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida mintaqalarni innovatsion va kompleks rivojlantirish yo'nalishlari, ularning rivojlanganlik darajasini baxolash uslubiyati, mintaqa iqtisodiyotini raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlari tadqiq qilingan.

O'zbekistonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirishga e'tibor keskin kuchaytirilib, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, maxsus maqsadli davlat dasturlari va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarning ahamiyatini yuqoriligi borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Xorazm viloyatiga tashrifi chog'ida iqtisodiy islohotlarni yangi, yanada yuqori darajaga ko'tarishga erishish uchun amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar qatorida "...har bir tuman va shaharni kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqish"⁹ belgilandi.

Qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, innovatsion tizimli yondashuvlar asosida shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadli tizimi ishlab chiqildi.

Bosh maqsad qilib aholi turmish farovonligini yuksaltirish, kambag'allikni qisqartirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish belgilangan.

Maqsadlar 6 guruhga bo'lingan.

Ijtimoiy maqsadlar:

- Aholini samarali ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish;
- Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini amalga oshirish;
- Aholi bandligini taminlash, ishsizlikni kamaytirish;
- Aholi daromadlarini oshirish;
- Ijtimoiy fondlar samaradorligini oshirish;
- Mahalla tizimini rivojlantirish;

Iqtisodiy maqsadlar:

- Mintaqada shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- Shahar va tumanlarni rivojlanish darajasidagi nomutonosibliklarni kamaytirish;
- Mintaqada kichik va o'rta biznesni rivojlantirish;
- Shahar va tumanlarda investitsion muhitni shakllantirish;
- Mintaqada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish;
- Tarmoqlar va tarmoqlararo klasterlarni shakllantirish;

Ishlab chiqarish maqsadlar:

- Mintaqada iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish;
- Korxonalarini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish;
- Sanoatni yangi tarmoqlarini vujudga keltirish;
- Shahar va tumanlarda agrologistik markazlar tashkil etish;

⁹ Xorazmdagi imkoniyatlar va ularni ishga solish bo'yicha vazifalar muhokamasi/ 01.03.2024.
<https://president.uz/oz/lists/view/7064>

- Ishlab chiqarishda qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

Ilmiy texnik maqsadlar:

- Innovatsion hududlar tashkil etish;
- Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli platformalar yaratish;
- Innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish
- Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Hududlarda innovatsion -investitsion dasturlarini ishlab chiqish;
- Innovatsiyalarni qo‘llab quvvatlash jamg‘armalarini, venchur fondlarini tashkil etish;

Ekologik maqsadlar:

- Hududlarda ekologik-iqtisodiy tizimlarni vujudga keltirish;
- Iqtisodiyot tarmoqlarini ekologiyalashtirish;
- Hududlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va bilimlarini oshirish;
- Mahallalarda ekologik hududlar tashkil etish;
- Korxonalarda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;
- Ekotizimni rivojlantirish;

Tashkiliy maqsadlar:

- Xalq Deputatlari, viloyat, shahar, tuman kengashlarida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini tasdiqlash;

- Tarmoqlar va tarmoqlararo klasterlar samaradorligini baholash markazlarini tashkil qilish;

- Shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini muvofiqlashtirish kengashlarini tuzish;

- Kompleks rivojlanish dasturlarini bajarish yuzasidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish;


- Xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman kengashlari sessiyalarida hududiy dasturlarni bajarilishi yuzasidan ijro hokimiyati organlarini hisobotlarini eshitish (3-rasm).



3-rasm. Shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadli tizimi¹⁰.

¹⁰ Источник: разработка автора

Dissertatsiyada innovatsion yondashuvlar asosida shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish bosqichlari ishlab chiqildi(4-rasm)



4-rasm. Innovatsion yondashuvlar asosida shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish bosqichlari¹¹

1-bosqich. Shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturni ishlab chiqishning dastlabki bosqichi tashkiliy bosqich hisoblanib, unda tashabbuskor guruhlar, dasturni ishlab chiqishga metodik va amaliy yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlar va shaxslar, sohalar va tarmoqlar bo‘yicha mas’ullarni aniqlash, yakunda esa tegishli hujjat tayyorlab, tasdiqlash uchun kiritiladi. Hudud aholisini dastur ishlab chiqilayotganidan xabar toptirish hamda ularni fikr va mulohazalarini o‘rganish maqsadida, ommaviy axborot vositalarida dastur ishlab chiqilayotgani to‘g‘risida ma’lumotlar berish lozim hisoblanadi. Tashkiliy bosqichning yakuniy qismida tashabbuskor guruhlar, ishchi guruhlar va ularning vazifalarini hamda strategiyani ishlab chiqish bilan bog‘liq boshqa tashkiliy ishlarni o‘z ichiga olgan hudud hokimining huquqiy hujjati qabul qilinadi.


2-bosqich. Ushbu bosqich mintaqa rivojlantirishning strategik maqsadlari, vazifalarini aniqlashga asos yaratish bosqichi hisoblanib, tuzilgan ishchi guruhlar va ularga qo‘shimcha jalb qilingan mutaxassislar tomonidan hudud iqtisodiyoti kompleks tahlil qilinadi. Hudud iqtisodiyotini kompleks tahlil qilish va baholash 4 qismdan iborat bo‘ladi:

- shahar va tumanlar iqtisodiyoti soha va tarmoqlari tahlili;
- ishlab chiqarish infratuzilma holatini baholash;
- raqobat ustunliklarini aniqlash;
- shahar va tumanlar salohiyatini baholash.

Tahlil qilishda oxirgi 5 yil ma’lumotlari o‘rganiladi va hudud geografik joylashuvi va o‘rni, demografik holat, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi, investitsiya va eksport faoliyati, ijtimoiy soha (ahola turmush darajasi va sifati, bandlik, ijtimoiy infratuzilma, ta’lim va b.) bo‘yicha chuqur tahlil o‘tkaziladi.

¹¹ Источник: разработка автора.

Shu asosda shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish algoritmi tuzildi (5-rasm).



5-rasm. Shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish algoritmi¹².

Algoritmda shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy ishlar tahlili, shahar va tumanlar iqtisodiyotini kompleks tahlil qilish va rivojlanish darajasini baholash, yo'l haritalari ishlab chiqish, monitoring va amalga oshirish mexanizmi yuzasidan takliflar berilgan.

Infratuzilma holatini baholash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: avtomobil va temir yo'llari, havo transporti, energetika va telekommunikatsiya infratuzilmasi, suv ta'minoti va kanalizatsiya. Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan elektr energiyasi sarfi hisoblanadi. Kelajakda amalga oshirilishi kutilayotgan loyihalarni hisobga olgan holda qancha elektr energiyasi kerakli hisoblab chiqiladi va

¹² Источник: разработка автора

infratuzilmani ham rivojlantirish bo'yicha vazifalar belgilanadi.

Raqobat ustunliklarini aniqlashda shahar va tumanlarda ishlab chiqarilayotgan sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulot va xizmat turlari tahlil qilinadi va viloyat ko'rsatkichi bilan solishtiriladi. Raqobat ustunligini aniqlashda hududning ixtisoslashuvini ko'rsatadigan quyidagi formuladan foydalanildi.

$$RU_{\text{tuman(shahar)}} = \frac{MX_{\text{tuman (shahar)}}}{UX_{\text{viloyat}}} \div \frac{MX_{\text{viloyat}}}{UX_{\text{viloyat}}}$$

$RU_{\text{tuman(shahar)}}$ - tuman (shahar) faoliyat turining ixtisoslashuv indeksi;

MX_{viloyat} -viloyatda u yoki bu faoliyat turi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

UX_{viloyat} - viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy hajmi;

$MX_{\text{tuman(shahar)}}$ - tuman (shahar)da u yoki bu faoliyat turi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

$UX_{\text{tuman(shahar)}}$ - tumanda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy hajmi.

O'zbekistonning turli hududlarida 2014-2023-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmi o'zgarish darajasi tahlil qilindi(1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida yalpi hududiy mahsulot hajmi tahlili¹¹, mlrd. so'mda

Hudud	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
O'zbekiston Respublikasi	186829,5	221350,9	255421,9	317476,4	426641	532712,5	605514,9	738425,2	896617,9	1066569
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5433,8	6703,8	8568,3	10855,1	15622,6	19557	21661,9	25681,8	30117,6	32916,1
Andijon viloyati	11872,3	13914	16115,6	19753	27017,7	33581,3	38008,5	43332,5	56488,3	68223,4
Buxoro viloyati	10228,8	12368,6	14390,7	17191	21817,4	27963,2	31334,2	38350,1	46126,2	53232,3
Jizzax viloyati	5635,5	6730,8	7767,1	9680,7	12715,6	16056,1	18441,7	23274,3	27545,4	33323,3
Qashqadaryo viloyati	14631,1	17247,7	20163,9	21597,3	26438,9	32223	35351,5	42560,2	49692,3	58404,5
Navoiy viloyati	9181,7	10545,2	11959,3	14681,5	22573,3	36224,3	49780,4	58730,3	68799,4	81943,2
Namangan viloyati	8852,9	10826,9	12874,5	15311,1	18809,6	23764	27863	34194,1	40565,1	47112,6
Samarqand viloyati	15477	18513,7	23083,3	27039	32681,7	38765,9	43023,2	52893,6	61627,7	74115,3
Surxondaryo viloyati	9213,2	11114,4	12179,6	14404,4	18592,5	22288,1	24625,6	29693,2	34385,3	40909,8
Sirdaryo viloyati	4115,4	5076,9	6059,8	6799,6	8532,7	11865,2	12803,8	15071,5	18210,8	21549,9
Toshkent viloyati	18729	22089	23876,1	29092,8	39989,9	54759,3	64407,6	82221,8	94789,9	107918,1
Farg'ona viloyati	13549,5	16342,4	18106,3	20749,2	27523,9	32520,8	37216,2	47760,5	56315,9	65781
Xorazm viloyati	7313,7	8940,4	10336,6	12008,1	15900,1	19129,1	21315,4	26464,3	32541	36916,5
Toshkent shahri	24401,3	29847,4	37164,3	49259,1	63509,2	84720,4	95247,8	121779,8	149646,2	181859,6

Ma'lumotlar yillar davomida O'zbekiston hududlari o'rtasida YaHMDagi sezilarli

tafovutni ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahri doimiy ravishda yeng yuqori yalpi ichki mahsulotga yega bo'lsa, Samarqand, Namangan va Andijon kabi viloyatlar ikkinchi o'rinda turadi.

Ikkinchi tomondan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatida boshqa viloyatlarga nisbatan yalpi hududiy mahsulotning doimiy ravishda pastligi ko'rinadi. Yillar davomida aksariyat hududlarda yalpi hududiy mahsulotning sezilarli o'sishi kuzatilmoqda, bu umumiy iqtisodiy o'sish va rivojlanishdan dalolat beradi.

Biroq, Sirdaryo va Qoraqalpog'iston kabi ayrim hududlarda nisbatan sekinroq o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.

Xorazm viloyatini YAHM hajmi ham yildan yilga o'sish dinamikasiga ega bo'lib, 2023-yilda qariyb 37 trln. so'mni tashkil etgan, aholi jon boshiga esa bu ko'rsatkich 19 mln. so'mga to'g'ri keladi.

Shu o'rinda, O'zbekistonda mintaqa iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son, 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni bilan "hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularning sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy yetish, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko'magini berish tartibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish"¹³ bo'yicha vazifalar belgilab berildi. Mazkur Farmonning 1-ilovasiga muvofiq "Respublika tuman va shaharlarini 5 ta toifaga ajratish, tuman va shahar toifasidan kelib chiqib, tadbirkorlik subektlariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ularni qo'llab-quvvatlashning boshqa choralarini qo'llash tartibini joriy etish belgilab qo'yildi.

Dissertatsiyaning "**Innovatsion yondoshuvlar asosida Xorazm viloyatini kompleks rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish**" deb nomlangan uchinchi bobida Xorazm viloyatini mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, mintaqa iqtisodiyotini raqamlashtirish va kompleks rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Xorazm viloyati sanoati tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan, qishloq xo'jaligi betakror bioiqlimiy salohiyatga va qadimiy samarali dehqonchilik an'alariga ega, tarixiy obidalarga boy, mintaqa hisoblanadi. Mintaqani Turkmaniston davlati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatlari bilan chegaradoshligi, uning hududidan xalqaro ahamiyatga ega magistral temir yo'llari va avtomobil yo'llarining o'tganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda viloyatda paxta xom ashyosini to'liq qayta ishlash, tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, paxta to'qimachilik va agroklasterni tashkil etish, oziq ovqat sanoati korxonalarini innovatsion yangilash va yangi

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmon

quvvatlarni ishga tushirish evaziga meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash imkoniyatlar kengaymoqda.

Viloyat respublika aholisini guruch bilan ta'minlaydigan asosiy mintaqa bo'lib qolmoqda.

Mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5,5 foizini, aholi jon boshiga hisoblaganda esa o'rtacha mamlakat darajasining 67,8 foizini tashkil qiladi. YAHM tarkibida keyingi yillarda agrar sektor ulushining qisqarishi, ayni vaqtda sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi ko'payishiga erishildi. Lekin jami xizmatlarning YAHM dagi ulushi 43,1 foiz bo'lgani holda, mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan (52%) past darajada qolmoqda (2 -jadval).

2 -jadval

Xorazm viloyatining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni, %

Ko'rsatkichlar	2010-y.	2015-y.	2023-y.	Mamlakatimizda tutgan o'rni (2023-yilda)
Aholi	5,4	5,6	5,5	11
Yalpi hududiy mahsulot	4,4	3,1	3,1	11
Sanoat mahsulotlari	2,6	1,4	1,7	12
Iste'mol tovarlari	4,3	2,4	2,4	9
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	6,6	6,2	6,0	10
Asosiy kapitalga investitsiyalar	3,5	2,5	3,9	11
Chet el investitsiyalari			1,1	13
Qurilish ishlari	6,6	3,3	4,8	13
Chakana savdo aylanmasi	3,6	4,3	4,2	10
Pullik xizmatlar	3,8	3,9	4,0	10
Bozor xizmatlari		2,7	3,2	11
Tashqi savdo aylanmasi	1,3	0,8	0,8	13
sh.j.				
Eksport	2,0	1,1	1,0	12
Import	0,5	0,4	0,7	14

Sanoat ishlab chiqarish hajmining keyingi yillarda sezilarli ortganligiga qaramasdan, Xorazm viloyati mamlakat sanoatining hududiy tarkibida oxirgi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Bu borada keyingi yillarda erishilgan ijobiy o'zgarishlar asosan yengil va oziq ovqat sanoatini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalar hisobiga amalga oshirilmogda. Shunga qaramasdan sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga nisbatan to'g'ri kelishi mamlakat darajasidan deyarli 3,3 barobar past.

Viloyatning Respublika yalpi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ulushi -10 foizni tashkil etadi. Aholining 34,3 foizga yaqini agrar sektorda band (dehqon xo'jaliklaridagi bandlar bilan birga). Ayni paytda mintaqa suv resurslarining 97 foizi qishloq xo'jaligida sug'oriladigan ekin turlari yetishtirishda ishlatiladi. Jami ekin maydonlari sho'rlangan bo'lib, shundan 50 foizdan ortig'ini o'rta va kuchli sho'rlangan yerlar tashkil etadi.

Xorazm viloyati investitsion faollik darajasiga ko'ra mamlakat hududlari ichida 11 o'rinda turadi. Milliy iqtisodiyotga jalb etilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning

3,9 foizi, chet el investitsiyalarining 1,1 foizi mintaqaga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar asosini mashinasozlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan markazlashgan investitsiyalar hamda yengil va oziq ovqat sanoatiga oid mahalliy loyihalar tashkil etadi.

Mintaqa jami xizmatlar hajmi buyicha, aholi jon boshiga hisoblaganda, respublikada 11 o'rinni egallaydi. Bu ko'rsatkich o'rtacha mamlakat darajasining 3,2 foizini tashkil etadi va viloyat xizmatlar sohasi o'rta rivojlangan hududlar qatoriga kiradi. Moliya xizmatlari aholi jon boshiga hisoblaganda, o'rtacha mamlakat ko'rsatkichining 61,8 foizini, turistik xizmatlar – 67,4 foizini, savdo va umumiy ovqatlanish – 65,0 foizini, maishiy xizmatlar – 81,6 foizini va boshqa xizmatlar – 50,5 foizini tashkil etadi.

Eksport salohiyati jihatidan mintaqa mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan quyi o'rinlarni egallaydi.

Tadqiqot natijasida Xorazm viloyati shahar va tumanlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari aniqlandi va dasturlar ishlab chiqildi(3-jadval).

3-jadval

Xorazm viloyati shahar va tumanlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari¹⁴

№	Hududlar nomlari	Ustuvor yo'nalishlari
1	Urganch shahar	Sanoat tarmoqlari, turizm, ta'lim va tibbiyot, xizmatlar sohasi, tibbiyot industrial parki.
2	Xiva shahar	Turizm tarmoqlari va infratuzilmasi, xizmatlar sohasi, hunarmandchilik.
3	Yangibozor tumani	Kichik sanoat ishlab chiqish sohalari, qishloq xo'jaligi, agro va eko turizm, agro-klasterlar
4	Gurlan tumani	Qishloq xo'jaligi, agro-klasterlar agro va eko turizm qayta ishlash sanoati, parrandachilik.
5	Shovot tumani	Sanoat tarmoqlari, chegara-oldi savdo zonalari, urbanizatsiya hududlari, xizmatlar sohasi, parrandachilik, innovatsion sug'orish tizimi.
6	Xiva tumani	Turizm qishloqlari, kichik sanoat ishlab chiqish sohalari, qishloq xo'jaligi
7	Yangiariq tumani	Innovatsion sug'orish tizimi, uy sanoati, qurilish materiallari sanoati, issiqxona xo'jaligi, turizm qishlog'i baliqchilik.
8	Tuproqqal'a tumani	Innovatsion hudud, innovatsion sug'orish tizimi, elektro- energetika, qishloq xo'jaligi.
9	Urganch tumani	Elektrotehnika, qurilish materiallari, uy sanoati, xizmatlar sohasi, infratuzilma
10	Xonqa tumani	Qishloq xo'jaligi, agro-klasterlar, uy sanoati, parrandachilik
11	Hazorasp tumani	Erkin iqtisodiy zona, elektro tehnika va kimyo sanoati, urbanizatsiya hududlari, parrandachilik.
12	Bog'ot tumani	Qishloq xo'jaligi qurilish sanoati, yengil sanoat va teplitsa xo'jaligi, uy sanoati, parrandachilik.
13	Qo'shko'pir tumani	Qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, agro-klasterlar va teplitsa xo'jaligi, uy sanoati.

¹⁴ Источник: разработка автора.

